

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

SODIKOV DILSHODBEK KOBILOVICH

**LINGVOKULTUROLOGIK FENOMENLARNI
TARJIMADA IFODALANISHI**
(o‘zbek tilidan nemis tiliga qilingan tarjima asarlari asosida)

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

UO‘K: 811.512.133'255.2:008
811.112.2'255.2:008

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Sodikov Dilshodbek Kobilovich

Lingvokulturologik fenomenlarni tarjimada ifodalanishi (o‘zbek tilidan nemis tiliga qilingan tarjima asarlari asosida) 3

Содиков Дилшодбек Кобирович

Использование лингвокультурологических феноменов в переводе (на основе произведений, переведенных с узбекского на немецкий язык) 25

Sodikov Dilshodbek Kobilovich

Representation of linguistic and cultural phenomena in translation (based on works translated from Uzbek to German) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

SODIKOV DILSHODBEK KOBILOVICH

**LINGVOKULTUROLOGIK FENOMENLARNI
TARJIMADA IFODALANISHI
(o‘zbek tilidan nemis tiliga qilingan tarjima asarlari asosida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3575 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Andijon davlat chet tillari institutining rasmiy veb-sahifasi (www.adchti.uz)da hamda rasmiy “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarxodjayev Muxtar Ishanxodjayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yakubov Jamoldin Abduvaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Kaxarova Mavluda Mukarramovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Andijon shahar, Boburshoh ko‘chasi, 5-uy. Tel: (74) 223-42-76, faks: (74) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 170100 Andijon shahar, Boburshoh ko‘chasi, 5-uy. Tel: (74) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashraisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.Dj.Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.A.Abduvaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida lingvokulturologiya va tarjima yoʻnalishlarining taraqqiyot bosqichlarini tahlil etish oʻzbek matnlarida uchraydigan lingvokulturologik fenomenlarning nemis tiliga koʻchirilish jarayonini har tomonlama oʻrganish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Mazkur ilmiy yondashuv madaniy rangga ega til birliklarining mazmunini ochish bilan bir qatorda, ikki xalqning mental xususiyatlari, urf odatlari, qadriyatlar tizimi, tarixiy tajribasi va dunyoqarashi tarjima jarayonida qanday oʻzgarishga uchrashi mumkinligini aniqlashga imkon beradi. Shuning uchun ham lingvokulturologik unsurlarni maqsad tilga toʻgʻri va mazmunan adekvat tarzda koʻchirish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy yoʻnalish sifatida eʼtirof etilmoqda.

Dunyo tilshunosligi doirasida lingvokulturologik birliklarning tarjimada ekvivalentini aniqlash, ularni milliy madaniy mazmundan ajratmagan holda maqsad tilga yetkazish, tarjima jarayonida kuzatiladigan semantik yoʻqotishlar, milliy tasavvurlar va obrazlarning oʻzgarishi hamda kompensatsiya usullarini chuqur tahlil qilish bugungi kun ilmiy izlanishlarining muhim yoʻnalishlaridan biridir. Oʻzbek tilidan nemis tiliga bajarilayotgan badiiy tarjimalarda milliy madaniyatga daxldor unsurlarni toʻlaqonli aks ettirish, milliy konseptlarning mazmunini saqlagan holda ifodalash, maqsad til uchun mos ekvivalentlarni tanlash, lingvokulturologik realiyalarni yetkazishning samarali usullaridan foydalanish, shu bilan birga izohli, moslashtiruvchi, transkripsion yoki funksional tarjima strategiyalarini ongli tanlash zarurati ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlarning mazmunini belgilab bermoqda.

Mamlakatimizda oʻzbek va nemis tillari oʻrtasida amalga oshirilayotgan tarjimalarda lingvokulturologik fenomenlarni oʻrganish, chet el tarjima tajribalariga tayangan holda ilgʻor metodikalarni tatbiq etish, badiiy tarjimalarda milliy koloritni saqlash, oʻzbek xalqining tarixiy, etnik, diniy, folkloriy xotirasi va milliy mental makonini nemis tili vositasida toʻliq aks ettirish boʻyicha ilmiy izlanishlar faollashmoqda. Mazkur yoʻnalishda olib borilayotgan tadqiqotlar lingvokulturologik birliklarning tarjimada transformatsiyalanish jarayonini aniqlash bilan birga, mamlakatimizda tarjima maktabini rivojlantirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish va oʻzbek adabiy merosini dunyoga tanitish uchun ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "...dunyoda ilmfan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yoʻnalishida qoʻlga kiritilgani tasodifiy emas" degan fikri mazkur sohada olib borilayotgan izlanishlarning koʻlami kengligidan dalolat beradi. Diplomatik diskurs paradigmasi va sintagmatik modeli boʻyicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar koʻplab munozarali masalalarni hal etishga, til birliklari tizimining ichki mexanizmlarini ochishga xizmat qiladi.¹

¹ Mirziyoyev Sh.M. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi [Elektron resurs]. – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3324> (Murojaat sanasi: 01.01.2026).

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3654-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar belgilagan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot bevosita ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.²

Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda antropotsentrik paradigma til va tafakkur, til va madaniyat, til va inson omili, til va tarix o‘zaro aloqadorligini chuqurroq o‘rganishga intilgan ilmiy harakatlar natijasida yuzaga keldi. Bu boradagi dastlabki ilmiy asoslarni Yevropa va rus tilshunoslari V.Gumboldt, A.Vaysgerber, L.Blumfeld, E.Sepir, Boduen de Kurtene, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov kabi olimlar yaratganlar. Ushbu olimlarning qarashlari psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi yo‘nalishlarning shakllanishiga turtki bo‘lgan.³

Dunyo tilshunosligida matni antropotsentrik paradigma asosida o‘rganish, asosan, lingvistik, semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko‘zga tashlanadi. Xususan, N.Xomskiy, U.Cheyf, B.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Yu.S.Stepanov, I.R.Galperin, N.I.Karaulov, N.I.Jinkin, A.A.Leontyev, J.Lakoff, T.A.Van Deyk, A.Vejbitskaya, Ye.S.Kubryakova, T.M.Rogovnikova,

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli Qarori “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi Qarori “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PQ-3654-sonli Qarori “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli Farmoni “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli Qarori “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

³ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 398 с.; Weisgerber L. Muttersprache und Geistesbildung. – Düsseldorf: Schwann, 1950.; Bloomfield L. Language. – New York: Holt, 1933.; Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1921.; Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. – М., 1963.; Потебня А.А. Мысль и язык. – М.: Лабириинт, 1993.; Шахматов А.А. Очерк современного русского литературного языка. – СПб.: Типография М.Меркушева, 1905.

V.P.Belyanin, V.Z.Demyankov, V.A.Maslova, T.M.Dridze, K.F.Sedov, A.Nurmonov, N.M.Mahmudov, E.A.Begmatov, M.I.Umarxodjaev, Sh.Safarov, S.Boymirzayeva, R.Sayfullayeva, I.Azimova⁴ kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi antroposentrizm tamoyillari asosida tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Innovatsiyalarni nemis tili va adabiyoti ta'lim tizimida joriy etishning muammo va yechimlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va nemis tillari tizimidagi realiya, frazeologizm hamda madaniy lakunalar kabi lingvokulturologik fenomenlarning lisoniy tabiatini qiyosiy-tipologik jihatdan dalillash, mazkur birliklarning badiiy tarjimada aks etish mexanizmlarini tadqiq etish orqali o'zbek va nemis tillari stilistik normalari doirasida milliy-madaniy o'ziga xoslikni saqlashning optimal metodologik tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va nemis tillari materiallari asosida lingvokulturologik fenomenlarga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar hamda tarjima nazariyalaridagi ilg'or paradigmalarning konseptual asoslarini o'rganish, qiyosiy tarjima tamoyillari doirasida madaniyatlararo kommunikatsiya va ekvivalentlik masalalarini tizimli tahlil qilish;

o'zbek tilidan nemis tiliga qilingan badiiy tarjimalarda milliy-madaniy birliklarning, xususan, realiyalar, etnografik leksika, frazeologizmlar, tabu va evfemizmlar, paremiologik birliklar hamda antroponim va toponimlarning tarjima

4 Хомский Н. Картезианская лингвистика. М., 2005.; Чейф У. Л. Значение и структура языка. Пер. с англ. Г. С. Щура, послесл. С. Д. Кацнельсона. – (Языковеды мира) – М.: Прогресс, 1975. (Переиздания: М.: Едиториал УРСС, 2003; 2009.) Серебrenников Б.А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и мышление. М.: Наука, 1991. - 242 с.; Щерба Л. В.. Восточнолужицкое наречие. Петроград, 1915. Том 1. С приложением текстов.; Степанов Ю.С. Семиотика концептов // Семиотика: Антология/Сост. Ю.С. Степанов. М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2001.-С. 603-612; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.: Наука, 1981.- 138 с.; Караулов Ю.Н. Активная грамматика и ассоциативно-вербальная сеть., М.: ИРЯ РАН, 1999. - 180 с.; Леонтьев А.А. Психолингвистический аспект языкового значения // Принципы и методы семантических исследований. М.: Наука, 1976. С. 4672; Лакофф Дж. Мышление в зеркале классификаторов // Новое в зарубежной лингвистике. Когнитивные аспекты языка. Выпуск XXIII. М.: Прогресс, 1988.-С. 12-51.; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. М.: Русские словари, 1997. -405 с.; Кубрякова Е.С. Лексикон как компонент языковой способности человека // Английский лексикон в лингвистическом и культурологическом пространстве: Сб. науч. тр. Вып. 400. М.: МГЛУ, 1992. - С. 4-12.; Рогожникова Т.М. Психолингвистическое исследование функционирования многозначного слова. Уфа: УГАТУ, 2000. - 242 с.; Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературы). –М.: Тривола, 2000. Стр.248; Demyankov V.Z. Concept and concept in fiction and in scientific language // Problems of philology. - Moscow, 2001. - No. 1. - S. 35-47; Maslova V.A. Linguoculturology. - М.: Academia, 2001. - p. 17; Sedov K.F. Discourse and personality. - М.: Labyrinth, 2004. - P. 5.; Mahmudov N. Looking for ways to study the language perfectly ... // Uzbek language and literature. - Tashkent, 2012. - № 5. - B. 3-16; Pimenova M.V., Kondrateva O.N. Conceptual research. Introduction. - М.: Flinta, 2014. - p. 8.; Lakoff J., Johnson M. Metaphors that we live by (Translated by N. V. Pertsov) // Theory of metaphors. - М.: Progress, 1990. - S 387-415. Махмудов Н., Худойберганова Д, Ўзбек тили ўхшатишларинингизоҳли луғати. –Т.: Маънавият. 2013; Бегматов Э. Бобоева А. Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Т.: Фан, 1983; Умархўжаев М.Э. Typologismen und übersetzungswissenschaftliche Aspekte bei der kontrastiven Analyse von Phraseologismen. Wissenschaftliche Arbeitstagung zu Ehren des 150. Geburtstages von August Schleicher. – Jena, 1971.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006; Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матнинг коммуникативпрагматикмазмунини шакллантирувчи категориялар. ДДА. – Т., 2010; Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Т.: Fan vatexnologiyalar.2010.

jarayonida namoyon bo'lish xususiyatlarini semantik-pragmatik jihatdan kompleks tadqiq etish hamda ularning funksional o'zgarishlarini dalillash;

lingvokulturologik birliklarning nemis tiliga tarjimasida qo'llangan strategiya va usullarning samaradorligini aniqlash, nemis tili stilistik normalari doirasida madaniy kodning saqlanishi hamda milliy koloritning berilishi bilan bog'liq tipik muammolarni yoritish orqali tarjima transformatsiyalarini tasniflash;

o'zbek lingvokulturologik fenomenlarini nemis tiliga yetkazish jarayonida yuzaga keladigan lisoniy to'siqlarni bartaraf etishga oid ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish, madaniy ma'no va milliy identitetni adekvat aks ettirishga xizmat qiluvchi tarjima modellari hamda amaliy mexanizmlarni takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida, o'zbek tilidan nemis tiliga qilingan tarjima asarlaridagi lingvokulturologik fenomenlarni ifodalovchi badiiy matnlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti o'zbek tilidan nemis tiliga qilingan badiiy tarjimalarda uchraydigan lingvokulturologik fenomenlarning struktur-semantik, funksional-stilistik, lingvokulturologik hamda pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning tarjima matnida voqelanish qonuniyatlarini o'zbek va nemis tillari stilistik normalari doirasida qiyosiy-lingvistik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tizimli tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvokulturologik fenomenlarning lisoniy tabiatini aniqlash, ularning nemis tili stilistik normalari doirasida tarjimada aks etish xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish maqsadida tavsifiy, qiyosiy, chog'ishtirma, komponent, struktur, tasniflash, modellashtirish, distributiv, ilustrativ, kontekstual, pragmatik, transformatsion, interpretativ hamda lingvostatistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidan nemis tiliga amalga oshirilgan badiiy tarjimalarda lingvokulturologik fenomenlarni tadqiq etishga doir mavjud nazariy qarashlar tizimlashtirilib, milliy madaniy birliklarning tarjima matnida voqelanish jarayonini nemis tili stilistik normalari doirasida o'rganishga xizmat qiluvchi takomillashtirilgan lingvokulturologik tasnif mezonlari ochiqqlangan;

o'zbek tilidagi badiiy matnlarda uchraydigan milliy madaniy birliklar, realiyalar, etnografik leksika, frazeologizmlar, tabu va evfemizmlar, paremiologik birliklar hamda antroponim va toponimlarning nemis tiliga tarjima qilinish strategiyalari qiyosiy-lingvistik tahlil qilinib, ularning semantik, pragmatik va madaniy muvofiqlik darajalari tizimli asosda aniqlangan;

o'zbek tiliga xos lingvokulturologik fenomenlarni nemis tiliga ko'chirish jarayonida madaniy kodning saqlanishi yoki transformatsiyaga uchrashi bilan bog'liq muammolar lingvokulturologik ekvivalentlik hamda milliy kolorit transferi mezonlari asosida tadqiq etilib, tarjimada milliy-madaniy o'zlikni saqlashga xizmat qiluvchi muvozanatli moslashuv tamoyili asoslangan;

o'zbek lingvokulturologik birliklarining nemis tilida adekvat ifodalanishini ta'minlashga yo'naltirilgan innovatsion tarjima modeli ishlab chiqilib, unda milliy qadriyat, aksiologik qatlam va madaniy kodni nemis tili tabiatiga zid kelmagan holda qayta yaratishga imkon beruvchi amaliy mexanizmlar ilmiy jihatdan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidan nemis tiliga amalga oshirilgan badiiy tarjimalarda lingvokulturologik birliklarning tarjima jarayonida qo'llanish imkoniyatlari, shuningdek lingvokulturologiya, tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va ta'lim sohalaridagi amaliy ahamiyati aniqlangan.

o'zbek tilida yaratilgan badiiy matnlardagi milliy-madaniy birliklarni nemis tiliga tarjima qilishda qo'llanishi mumkin bo'lgan sotsiopragsmatik va funksional-stilistik yondashuvlarni o'zida mujassam etgan tasniflash modeli ishlab chiqilgan.

o'zbek tiliga xos lingvokulturologik realiyalar, etnografik leksika, milliy obraz va koloritni ifodalovchi birliklarning nemis tiliga ekvivalent va adekvat tarzda ko'chirilishida yuzaga keladigan tarjima muammolarini aniqlash hamda baholash mezonlari shakllantirilgan.

o'zbek tilidagi lingvokulturologik fenomenlarning nemis tiliga tarjima jarayonida semantik, fonetik va pragmatik transformatsiya modellarini qo'llash orqali milliy-madaniy o'zlikni saqlashni ta'minlovchi uslubiy yo'nalishlar belgilangan.

badiiy matn tarjimasida lingvokulturologik birliklar yordamida milliy koloriti, personaj nutqining milliy-madaniy xususiyatlarini, mualliflik uslubini va aksiologik qatlamni uzatishga doir amaliy ko'rsatmalar hamda tarjima jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ushbu tadqiqotdan olingan xulosalarning ishonchliligi, metodologik puxtalik va aniq maqsadli yondashuv bilan izohlanganligi, tadqiqotda ilgari surilgan masalalar aniq mezonlar asosida sarhisob qilinganligi hamda olingan amaliy natijalar xorijiy mutaxassislar va vakolatli ilmiy muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o'zbek tilidan nemis tiliga amalga oshirilgan badiiy tarjimalarda lingvokulturologik birliklarning namoyon bo'lish xususiyatlari ilk bor kompleks tarzda nazariy tahlil etilib, ularning struktur-semantik, lingvokulturologik va pragmatik tavsifi hamda milliy-madaniy o'zlikni ifodalashdagi vazifalari ochib berilgan. Tadqiqotda taklif etilgan tasnif mezonlari, tarjima strategiyalari va milliy koloritni saqlashga qaratilgan lingvokulturologik moslashuv tamoyillari zamonaviy tarjimashunoslik, lingvokulturologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya yo'nalishlarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun nazariy manba bo'la oladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada ishlab chiqilgan xulosalar va takliflardan oliy ta'lim muassasalarida tarjimashunoslik, lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya, badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha dars mashg'ulotlarida, shuningdek darslik, o'quv qo'llanma va metodik materiallar yaratishda samarali foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalari o'zbek tilidan nemis tiliga badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida milliy-madaniy birliklarni adekvat ifodalashga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar bilan ta'minlashga, shuningdek ko'p tilli va lingvokulturologik yo'naltirilgan lug'atlar tuzishda, tarjima jarayonida milliy koloritni uzatish usullarini takomillashtirishda amaliy qo'llanilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Lingvokulturologik fenomenlarning tarjimada ifodalanishi (o‘zbek tilidan nemis tiliga qilingan tarjima asarlari asosida)” mavzusidagi tadqiqot xulosalari asosida:

o‘zbek tilidan nemis tiliga o‘g‘irilgan badiiy asarlardagi lingvokulturologik birliklar, milliy-madaniy konnotatsiyalarning tarjimada aks etishi va ularning ekvivalentlik darajasini aniqlash bo‘yicha olingan nazariy ma’lumotlardan Andijon davlat universiteti tomonidan bajarilgan “OT-F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi davlat fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan. (26 aprel 2025 yil, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti, 04-1556-son) Natijada loyiha doirasida tarjima nazariyasini nemis tili stilistik normalari hamda milliy muloqot madaniyati bilan uyg‘un holda tadqiq etishning metodologik asosi takomillashtirilgan;

tarjimadagi lingvokulturologik elementlarning izohli muqobillarini shakllantirish, madaniy kodni saqlash va pragmatik adekvatlikni oshirishga doir tavsiyalardan “№ IL-402104213. O‘zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug‘at ishlab chiqish” mavzusidagi davlat innovatsion loyihasida foydalanilgan. (26 aprel 2025 yil, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti, 04-1555-son) Natijada loyiha doirasidagi elektron lug‘at bazasida o‘zbekcha-nemischa lingvokulturologik birliklarning leksikografik tavsifi sifat jihatidan yangilangan va lug‘at maqolalari tarkibi milliy-madaniy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

badiiy tarjimada lingvokulturologik fenomenlarning sharhlanishi, milliy identitetni qayta yaratish strategiyalari va ularning madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni yuzasidan olingan ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” kabi ko‘rsatuvlar ssenariylarida foydalanilgan. (10 iyun 2025 yil, «O‘zbekiston 24» ijodiy birlashmasi» davlat muassasasi, 05-09-865-son) Natijada o‘zbek va nemis xalqlari o‘rtasidagi lisoniy-madaniy aloqalarga oid ma’lumotlarning ilmiy-nazariy manbadorligi oshirilgan;

o‘zbek tilidagi milliy-madaniy presedent birliklarni nemis tiliga tarjima qilishda zarur bo‘lgan lingvokulturologik tizimlashtirilgan mexanizmlar, ular orqali tarjimon madaniy semantikani maksimal darajada saqlagan holda ekvivalentlikka erishishi mumkinligi qiyosiy tahlil qilingan IL-402104209 “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi - o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (2025-yil 5-sentabr, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, № 01/4-3984-son) Natijada, o‘zbek tilidagi milliy-madaniy presedent birliklarni nemis tiliga tarjima qilishda zarur bo‘lgan lingvokulturologik tizimlashtirilgan mexanizmlar ma’lumotlar bazasi kengaytirilgan. Bu esa tarjima algoritmlarining aniqligini oshirishga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari yuzasidan 4 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot ishi mavzusiga oid jami 11 ta maqola nashr qilingan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shulardan, 3 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 163 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Badiiy tarjimada lingvokulturologik fenomenlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanib, unda XX asr tilshunosligida shakllangan antropotsentrik yo'nalishlar hamda tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki millatning madaniy kodi va ijtimoiy ongini aks ettiruvchi murakkab hodisa sifatida talqin etishga asoslangan nazariy qarashlar yoritiladi. Til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik masalasi V. fon Gumboldt va A.A.Potebnya asarlarida ilmiy asoslangan bo'lib, V. fon Gumboldt til chegaralarini inson dunyoqarashi chegaralari bilan bog'laydi.⁵ Shu bois, til birliklari insonning olamni anglash jarayonida shakllanadigan kognitiv va madaniy tajribani ifodalovchi asosiy vosita sifatida talqin qilinadi.

Tilning milliy xususiyatlari va unda aks etgan dunyo manzarasi til egalarining tarixiy tajribasi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar va urf-odatlar bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur holat zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishiga olib keldi. Antropotsentrik yondashuv tilni inson markazida, ya'ni inson ongi, ehtiyojlari, tafakkuri va tajribasi bilan bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. A.N. Baranov bu yondashuv tilda namoyon bo'ladigan insoniy omillarni chuqur tahlil qilish imkonini berishini ta'kidlaydi.⁶ Natijada, til tizimini inson omili bilan bog'liq holda talqin etish zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim metodologik tamoyiliga aylanadi.

Tilshunoslikda "**antropotsentrizm**" tushunchasi etimologik jihatdan yunoncha "**anthropos**" va lotincha "**centrum**" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, ilmiy talqinda inson omilining markaziy o'rnini ifodalaydi. Zamonaviy tilshunoslikda mazkur paradigma tilni faqat strukturaviy tizim sifatida emas, balki

⁵ Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. Москва, 1984. С. 67–69.

⁶ Баранов А. Н. Антропоцентрическая парадигма в лингвистике. Москва, 2001. С. 112.

insonning kommunikativ ehtiyojlari, kognitiv faoliyati va psixologik holati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ochiq tizim sifatida talqin etishga xizmat qiladi. I.A. Zimnyaning ta’kidlashicha, tilshunoslik va nutq psixologiyasi o‘zaro aloqador bo‘lib, til birliklari inson tafakkuri va nutqiy faoliyatining shakllanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.⁷ Shu jihatdan, antropotsentrik paradigma tilni inson ongini va nutqiy tajribani aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin etish uchun konseptual asos yaratadi.

Mazkur paradigma asosida kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya yo‘nalishlari rivojlandi. Kognitiv tilshunoslik doirasida G. Lakoff va M. Johnson til birliklari orqali insonning konseptual olami shakllanishini asoslab berdilar.⁸ Lingvokulturologiya esa til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani tadqiq etuvchi yo‘nalish sifatida V. V. Vorobyov, E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovlar tomonidan rivojlantirildi.⁹ Mazkur yondashuv doirasida til birliklari milliy ong, madaniy qadriyatlar va tarixiy tajribani aks ettiruvchi asosiy vosita sifatida talqin qilinadi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda frazeologik birliklar, realiyalar va madaniy obrazlar madaniy axborotni saqlovchi va uzatuvchi asosiy lisoniy vositalar sifatida qaraladi. V.V. Vorobyov lingvomadaniy birliklarni madaniy axborotni tashuvchi til birliklari sifatida izohlaydi.¹⁰ Aynan shu birliklar orqali xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va milliy qadriyatlari til tizimida aks etadi.

Shu tariqa, antropotsentrik paradigma va unga asoslangan lingvokulturologik yondashuv zamonaviy tilshunoslikda tilni inson va madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish uchun mustahkam nazariy-metodologik asos yaratadi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda ramziy va metaforik birliklar madaniyatning lisoniy qatlamiga chuqur singib ketgan fundamental elementlar sifatida talqin qilinadi. Bunday birliklar orqali xalqning tarixiy tajribasi, estetik qarashlari va konseptual dunyo manzarasi verballashadi. Jumladan, o‘zbek lingvokulturasida “*Humo*” qushi matonat va tinchlik timsoli bo‘lib, *gul* obrazi noziklik va go‘zallik konseptlarini ifodalaydi. Nemis madaniyatida esa “*der Adler*” kuch va hokimiyat ramzi sifatida, “*die Eiche*” esa barqarorlik hamda milliy davlatchilik timsoli sifatida konseptuallashgan. Ushbu ramzlar milliy tafakkurda barqaror semantik yuklama kasb etib, lisoniy birliklar orqali mustahkamlanadi.

Metaforik modellar til va madaniyat o‘rtasidagi dialektik aloqani yanada aniqlashtiradi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*Vaqting ketdi, naqding ketdi*” maqol-metaforasi vaqtni bebaho qadriyat sifatida talqin etsa, nemis tilidagi “*Zeit ist Geld*” metaforasi vaqtning iqtisodiy qiymatini konseptual darajada ifodalaydi. G. Lakoff bunday metaforik modellar inson tafakkuri va madaniy dunyoqarashining asosiy kognitiv mexanizmi ekanini ilmiy jihatdan asoslab bergan.¹¹ Lingvokulturologik birliklar qatoriga turg‘un o‘xshatishlar, nutqiy etiketlar, milliy realiyalar, mifologemalar va presedent birliklar ham kiradi. “*Kaptardek oppoq*”,

⁷ Зимняя И. А. Лингвистика и психология речи. Москва, 2009. С. 18–19.

⁸ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. Chicago, 2003. Pp. 3–5.

⁹ Воробьев В. В. Лингвокультуроология. Москва, 2008. С. 41–43.; Степанов Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. Москва, 2004. С. 15–18.

¹⁰ Воробьев В. В. Лингвокультуроология. Москва, 2008. С. 52.

¹¹ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. Chicago, 2003. Pp. 3–5.

“*Stark wie ein Loewe*” kabi o‘xshatishlar, “*Assalomu alaykum*” va “*Guten Tag*” singari etiketlar, “*beshik to‘yi*”, *Weihnachten*, *sumalak*, *Bratwurst* kabi realiyalar milliy madaniyatning lisoniy xaritasini shakllantiradi. Bu birliklar tarjima jarayonida ekvivalent tanlashda alohida lingvokulturologik yondashuvni talab etadi.

Lingvokulturologiyada “**etalon**” tushunchasi muhim nazariy kategoriya sanaladi. V.V. Vorobyov etalonlarni madaniyatning lisoniy ifodasidagi o‘lchov birligi sifatida izohlaydi.¹² Etalonlar orqali xalq tafakkurida go‘zallik, kuch yoki poklik haqidagi tasavvurlar umumlashtiriladi. Masalan, o‘zbek tilida *qor* poklik, *tosh* esa matonat etaloni sifatida namoyon bo‘lsa, nemis tilida ushbu sifatlar boshqa milliy obrazlar orqali verballashadi. Bu holat har bir tilning o‘ziga xos lingvokulturologik xaritasini belgilaydi.

“**Stereotip**” tushunchasi ilk bor U. Lippman tomonidan “Public Opinion” asarida ilmiy muomalaga kiritilib, u inson ongida shakllangan soddalashtirilgan va ijtimoiy tasavvurlarga tayanuvchi tayyor fikrlar majmui sifatida izohlangan. Lippmanning fikricha, stereotiplar murakkab reallikni idrok etishni yengillashtiruvchi kognitiv mexanizm vazifasini bajaradi.¹³ Tilshunoslikda stereotiplar aynan shu soddalashtiruvchi model sifatida talqin etiladi. Yu. N. Karaulov ularni inson tafakkurining kategorik apparati deb baholab, stereotiplar orqali borliq qadriyatlar va madaniyat asosida tizimlashtirilishini ta’kidlaydi.¹⁴

O‘zbek tilida stereotiplar xalq og‘zaki ijodi, tarixiy xotira va etnografik tasavvurlarga tayanib, milliy qadriyatlarning lisoniy ifodasini tashkil etadi. “**O‘zbekiston mehmondo‘st yurt**”, “erkak kuchli, ayol nozik” kabi umumlasmalar bunga misol bo‘la oladi. G‘. Yusupova milliy stereotiplarning tilda barqaror ifodasi mavjudligini qayd etadi.¹⁵ Nemis tilida esa “*Deutsche sind pünktlich, Österreicher sind gemütlich*” kabi birliklar madaniy idrokning lisoniy in’ikosidir. A. Wirlacher ta’kidlaganidek, bunday stereotiplar madaniy o‘zlikni mustahkamlash bilan birga, ayrim hollarda noto‘g‘ri talqinlarga ham sabab bo‘lishi mumkin.¹⁶

Stereotiplar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan turg‘un o‘xshatishlar milliy etalonlarga asoslanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*musichadek bezor*” va nemis tilidagi “*sanft wie ein Lamm*” iboralari umumiy semantik mazmunni ifodalasa-da, ularning obrazli asosi madaniy jihatdan farqlanadi. Yu.N.Karaulov bunday birliklar ongda kodlangan semantik stereotiplar asosida tez idrok etilishini ko‘rsatadi.¹⁷ Shu jihatdan, stereotip va etalonlarning qiyosiy tahlili lingvokulturologik tadqiqotlar hamda tarjima amaliyoti uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Metafora bir obyekt yoki hodisa nomining unga o‘xshash yoxud konseptual jihatdan bog‘liq boshqa obyektga ko‘chirilishi natijasida yangi ma’no hosil qiluvchi murakkab lisoniy-kognitiv hodisadir. G. Lakoff va M. Johnson metaforani faqat stilistik vosita sifatida emas, balki inson tafakkurini tashkil etuvchi asosiy

¹² Воробьев В. В. Лингвокультурология. Москва, 2008. С. 52.

¹³ Lippmann W. Public Opinion. New York, 1922. Pp. 15–18.

¹⁴ Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. Москва, 2010. С. 42–44.

¹⁵ Юсупова Г. Тил va tafakkur masalalari. Toshkent, 2016. 45–47-betlar.

¹⁶ Wirlacher A. Interkulturelle Germanistik. Tübingen, 2003. S. 112–114.

¹⁷ Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. Москва, 2010. С. 42–44.

konseptual mexanizm deb baholaydilar.¹⁸ Lingvokulturologik yondashuvda metafora milliy dunyoqarash, tarixiy tajriba va madaniy baholash tizimining lisoniy in'ikosini ta'minlovchi muhim birlik hisoblanadi.¹⁹ Masalan, o'zbek tilidagi **"vaqt suvdek oqadi"** hamda nemis tilidagi **"Zeit ist Geld"** metaforalari vaqt konseptining madaniy idrokda turlicha talqin qilinishini ko'rsatadi. Metaforalarning milliy xususiyatlari tarjima jarayonida muayyan murakkabliklarni yuzaga keltirib, bu holat ko'pincha lisoniy lakunalar bilan bog'liq bo'ladi.²⁰ Lisoniy lakunalar muayyan madaniyatga xos bo'lib, boshqa til tizimida bevosita ekvivalentga ega bo'lmagan birliklar sifatida izohlanadi.²¹ Shu bois metafora va lakunalarni qiyosiy tahlil qilish madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Realiya tushunchasi badiiy matnda milliy madaniyat, tarixiy voqelik va etnografik xususiyatlarni ifodalovchi muhim lingvistik qatlam sanaladi. Ular asarda milliy koloritni yaratish, qahramon muhitini jonlantirish hamda madaniy konnotatsiyani uzatishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Tarjima jarayonida realiyalarni adekvat yetkazish murakkab vazifa bo'lib, bu tarjimondan lingvistik bilim bilan bir qatorda madaniy kompetensiyani ham talab etadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning *O'tgan kunlar* romanidagi **"supa, sovchi, mahalla"** kabi birliklarning **"skameyka"** yoki umumiy leksik birliklar bilan almashtirilishi tarixiy-madaniy muhitni soddalashtirib yuboradi. Xuddi shuningdek, Oybekning *Navoiy* romanida **"sholcha"** so'zining rus tilidagi tarjimada **"палач"** bilan berilishi denotativ ma'noni saqlagan bo'lsa-da, milliy rang-baranglikni yo'qotadi. Shu bois realiyalar tarjimasida transliteratsiya, izohli tarjima va funksional moslik strategiyalarini lingvokulturologik yondashuv asosida qo'llash badiiy va madaniy adekvatlikni ta'minlashning zarur sharti hisoblanadi.

Badiiy matnda milliy kolorit xalqning tarixiy taraqqiyoti, moddiy va ma'naviy madaniyati hamda mentalitetini aks ettiruvchi realiyalar majmui orqali namoyon bo'ladi. Ushbu birliklar taom nomlari, kiyim-kechaklar, diniy istilohlar, geografik nomlar, pul va o'lchov birliklari, marosimlar hamda adabiy terminlar vositasida madaniy mazmunni chuqurlashtiradi. Tarjima jarayonida milliy koloritni saqlash lingvokulturologik yondashuvni talab etib, faqat leksik moslik bilan cheklanib qolmaslik zarurligini ko'rsatadi. E.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov ta'kidlaganidek, realiyalar xalqning madaniy xotirasini ifodalovchi asosiy belgilar bo'lib, ularni tarjimada yo'qotish madaniy kontekstning buzilishiga olib keladi.²² A.V. Fyodorov fikricha, milliy birliklarni tarjimada saqlash asarning estetik va tarixiy ishonchliligini ta'minlaydi.²³ Shu bois realiyalar tarjimasida madaniy adekvatlik ustuvor tamoyil sifatida qaralishi lozim.

Dissertasiyaning II bobi **"O'zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilingan asarlar tarixi"** deb nomlanib, unda o'zbek nasriy asarlarining nemis tiliga tarjima qilinishi jarayoni tarixiy, nazariy va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi.

¹⁸ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. Chicago, 1980. Pp. 3–6.

¹⁹ Воробьев В. В. *Лингвокультурология*. Москва, 2008. С. 52–55.

²⁰ Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. *Язык и культура*. Москва, 2005. С. 118–123.

²¹ Kövecses Z. *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. Cambridge, 2005. Pp. 164–168.

²² Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. *Язык и культура*. Москва: Русский язык, 1990. С. 52–60.

²³ Фёдоров А. В. *Основы общей теории перевода*. Москва: Высшая школа, 1983. С. 118–123.

Zamonaviy tarjimashunoslikda tarjima faqat texnik vosita emas, balki murakkab badiiy-ijodiy faoliyat sifatida talqin etilib, bu yondashuv A.V. Fyodorov, S. Bassnett va G. Salomov asarlarida ilmiy jihatdan asoslab berilgan.²⁴ Ayniqsa, nasriy asarlarni tarjima qilish jarayonida muallif g'oyasi, obrazlar tizimi, milliy kolorit va madaniy kontekstni boshqa til muhitida adekvat qayta yaratish muhim masala sifatida qaraladi.

O'zbek nasriy asarlarini nemis tiliga tarjima qilish jarayonida ikki xil adabiy an'ana va madaniy makon tutashib, tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik kompetensiya bilan birga, madaniy tafakkur va estetik did ham talab etiladi. Bu borada D. Sultonova tarjimani madaniyatlararo muloqotning muhim mexanizmi sifatida baholab, tarjimon muallif uslubini, nutq ohangini va badiiy ruhni saqlashi zarurligini ta'kidlaydi.²⁵ E. M. Vereshchagin va V. G. Kostomarov esa tarjimani madaniy axborotni uzatuvchi murakkab jarayon sifatida izohlab, milliy realiyalar va lingvokulturologik birliklarning tarjimada saqlanishini ustuvor vazifa deb hisoblaydilar.²⁶ Shu jihatdan, mazkur bobda o'zbek nasriy asarlarining nemis tilidagi tarjimalari adabiy-estetik, semantik va madaniy adekvatlik mezonlari asosida tahlil qilinib, ularning ikki xalq adabiy tafakkuri o'rtasidagi madaniy muloqotdagi o'rni ochib beriladi.

Abdulla Qahhor badiiy prozasining nemis tiliga o'g'irilishi zamonaviy tarjimashunoslikning eng murakkab va diqqatga sazovor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Adib asarlaridagi frazeologik qatlam nafaqat lingvistik birlik, balki o'zbek xalqining milliy madaniy kodlarini o'zida mujassam etgan semantik strukturadir.²⁷ Masalan, Sinchalak qissasidagi **“Mehri va Saida”** o'rtasidagi dialogda qo'llanilgan paremiologik birliklar tarjima jarayonida lingvokulturologik adekvatlikni ta'minlashda o'ziga xos ko'rsatkich vazifasini o'taydi.²⁸ Mazkur matndagi **“it ochiq qolgan qozonni yalaydi”** iborasining nemis tiliga **“Der Hund leckt den offenen Topf”** tarzida kalka usulida o'g'irilishi, asliyatdagi ijtimoiy psixologik konnotatsiyani, ya'ni shaxsning qadrsizlanishi va xalq donishmandligidagi obrazli ifodani saqlab qolishga xizmat qilgan.²⁹

Abdulla Qahhor badiiy nasrida qo'llanilgan frazeologik birliklarning nemis tilidagi talqini zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan lingvokulturologik adekvatlik masalasini o'rta qo'yadi. Adibning Sinchalak qissasidagi **“Mehri va Saida”** muloqotini tahlil qilish orqali badiiy matndagi milliy koloritning lisoniy transformatsiyasini kuzatish mumkin. Xususan, it ochiq qolgan qozonni yalaydi iborasining nemis tiliga **“Der Hund leckt den offenen Topf”** tarzida kalka usulida o'g'irilishi, asliyatdagi ijtimoiy semantika va obrazli tafakkur o'rtasidagi mutanosiblikni saqlashga xizmat qiladi.³⁰

²⁴ Фёдоров А. В. Основы общей теории перевода. Москва: Высшая школа, 1983. С. 118–123.; Bassnett S. Translation Studies. London: Routledge, 2014. pp. 15–27.

²⁵ Султонова Д. Бадий таржима назарияси масалалари. Тошкент, 2010. 45–52-бетлар.

²⁶ Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. Москва: Русский язык, 1990. С. 52–60.

²⁷ Султонова Д. Таржима мутахассислигига кириш. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 58–66 betlar.

²⁸ Bryumler E. Usbekische Literatur in deutscher Übersetzung. Berlin: Akademie Verlag, 1970. S. 52.

²⁹ Erhardt H. Noch ein Gedicht. Berlin, 1962. S. 14.

³⁰ Султонова Д. Таржима мутахассислигига кириш. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 58–66 betlar.

O‘zbek prozasining ushbu namunalarini nemis madaniy muhitida qayta yaratish borasida tarjimon Oybek Ostonovning tadqiqotlari alohida ilmiy qimmatga ega. Muallif o‘zining “**Buyuk ipak yo‘li hikoyatlari**” nomli asarida ta’kidlaganidek, Sharqona obrazlilik va turg‘un birikmalarni boshqa til tizimiga ko‘chirish jarayoni shunchaki lingvistik ko‘chirish emas, balki chuqur madaniy interpretatsiyani talab etuvchi kognitiv jarayondir.³¹ Bu borada nemis tadqiqotchisi E. Bryumlarning “**Usbekische Literatur in deutscher Übersetzung**” asarida ilgari surilgan funksional ekvivalentlik nazariyasi Abdulla Qahhorning “**Anor**” hikoyasi misolida milliy-madaniy fenomenlarning nemis tiliga o‘girilishi tarjimashunoslikning funksional-kommunikativ adekvatlik va semantik-stilistik muvofiqlik tamoyillari asosida tahlil qilinishini taqozo etadi. Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan quyidagi parcha va uning tarjimasi lingvokulturologik transformatsiyani yaqqol namoyon etadi: **Asl matn:** “*Xolishonning ko‘ngli anor tusab qolibdi, dedi Turobdjon ichida bir nima uzilgandek bo‘lib*”.³²

Nemis tilidagi tarjimasi: “*Chalischon hat Sehnsucht nach Granatäpfeln, sagte Turobdshon, und ihm war, als risse in seinem Inneren etwas entzwei*”.³³ Mazkur parchada tarjimon O. Ostonov o‘zbek tilidagi “**ko‘ngli tusab qolmoq**” frazeologik birligini nemis tiliga “**Sehnsucht nach etwas haben**” birikmasi orqali ifodalashi madaniy adaptatsiya strategiyasining yorqin namunasidir. Bu yerda lisoniy birlik o‘zbek ayollarining homiladorlik davridagi fiziologik va ruhiy holatini aks ettiruvchi milliy kodni tashuvchi fenomen sifatida namoyon bo‘ladi, nemischa muqobil esa mazkur holatning emotsional yuklamasini o‘quvchi sub’yektiga yetkazib berishga xizmat qiladi.³⁴

Abdulla Qahhorning “**Anor**” hikoyasi misolida milliy madaniy fenomenlarning nemis tiliga o‘girilishi tarjimashunoslikning funksional kommunikativ adekvatlik va semantik stilistik muvofiqlik tamoyillari asosida tahlil qilinishini taqozo etadi. Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan quyidagi parcha va uning tarjimasi lingvokulturologik transformatsiyani yaqqol namoyon etadi:

Asliy matn: “*Jo‘xoringga qara! – dedi Turobdjon*”.³⁵

Nemis tilidagi tarjimasi: „*Samme die Körner ein! – sagte Turobdshon*“.³⁶

Ushbu parchada tarjimon Oybek Ostonov o‘zbek tilidagi “**qaramoq**” fe‘lini nemis tiliga “samme ein” (yig‘ib ol) buyruq shakli orqali ifodalagan. Bu yerda tarjimon ijodiy tarjima turidan foydalanib, lisoniy vositalarning matniy ma’nosi va uslubiy vazifasini umumxalq tili qoidalari bilan hamohanglikda qayta yaratishga intilgan bo‘lsada, chuqur semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi “**qaramoq**” so‘zi ushbu kontekstda nafaqat nazar solish, balki yiqilgan insonni turg‘izish, to‘kilgan donni tozalash va unga mas’ul bo‘lish kabi keng ko‘lamli harakatlarni qamrab oladi.

³¹ Ostonov O. Buyuk ipak yo‘li hikoyatlari. Berlin, 2016. 7-bet.

³² Qahhor A. Anor. Tanlangan asarlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. 21-bet.

³³ Ostonov O. Der Granatapfel Erzählungen. Berlin, 2018. S. 12.

³⁴ Ostonov O. Buyuk ipak yo‘li hikoyatlari. Berlin, 2016. 7-bet.

³⁵ Qahhor A. Anor. Tanlangan asarlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. 21-bet.

³⁶ Ostonov O. Der Granatapfel. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2019. S. 18.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan, ushbu o‘rinda nemis tilidagi “**schauen**” fe‘lidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Langenscheidt izohli lug‘atida ushbu fe‘lning oltinchi ma‘nosi g‘amxo‘rlik qilish va qarab turish semantik komponentlarini o‘z ichiga olib, o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi “**shug‘ullanmoq**” hamda “**tarbiya qilmoq**” ma‘nolari bilan to‘la mos keladi.³⁷ Tarjimada qo‘llanilgan “**sammle die Körner ein**” birikmasi esa harakatni faqat mexanik yig‘ib olish darajasiga tushirib, qahramonning ichki iztirobi va rafiqasiga nisbatan murakkab munosabatini pragmatik jihatdan to‘liq ochib bermaydi.

Shuningdek, “**jo‘xori**” realiyasining umumiy “**Körner**” (donlar) so‘zi bilan almashtirilishi milliy koloritning susayishiga olib kelgan. O‘zbek madaniyatida “jo‘xori” nafaqat oziq ovqat mahsuloti, balki milliy turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi madaniy koddir. Nemis tilidagi “**Mais**” leksemasi esa ko‘proq botanik xususiyatga ega bo‘lib, o‘zbek tilidagi jo‘xori tushunchasining barcha turdosh ma‘nolarini qamrab olmaydi.³⁸ Demak, keltirilgan misollar shuni tasdiqlaydiki, badiiy tarjimada lug‘aviy ma‘noga tayanish yetarli bo‘lmay, birliklarning kontekstual va madaniy qatlamlari hisobga olinishi lingvokulturologik adekvatlikni ta‘minlashning asosiy shartidir.

Keyingi asliy matni ham beirb o‘tsak “*Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go‘jaga qatiq ham rang kirgizolmadi. Turobjon ikki kosa ichdi, xotini esa hanuz bir kosani yarimlatolmas edi*”³⁹

Nemis tilidagi tarjimasi: „*Die Suppe war fertig. Durch die Zubereitung in dem alten verrosteten Kessel war diese jedoch so schwärzlich geworden, dass sogar die saure Milch die Farbe der Maissuppe nicht ändern konnte. Turobdshon aß zwei Schüsseln davon, aber seine Frau schaffte nicht einmal eine halbe*“.⁴⁰ Mazkur parchada tarjimon bir nechta strategiyalarni uyg‘un holda qo‘llagan. Xususan, “**zanglagan qozon**” birikmasining “**verrosteter Kessel**” shaklida berilishi so‘zma so‘z tarjima usuliga mansub bo‘lib, predmetning vizual va semantik belgilari to‘liq saqlangan.⁴¹ “Qatiq” realiyasining “**die saure Milch**” (nordon sut) orqali ifodalanishi funksional ekvivalentlikka asoslangan. Bu yerda leksik moslikdan ko‘ra pragmatik va madaniy yaqinlik ustuvor qo‘yilgan, chunki nemis tilidagi Quark birligi qatiqning ichimlik sifatidagi funksiyasini to‘liq ifodalamaydi.⁴²

“**Go‘ja**” realiyasini esa “**Maissuppe**” (makkajo‘xori sho‘rvasi) shaklida tarjima qilinishi madaniy moslashtirish strategiyasiga mansub bo‘lsada, o‘zbek tilining izohli lug‘atida “**go‘ja**” oq jo‘xoridan tayyorlanadigan suyuq ovqat sifatida ta‘riflanadi.⁴³ Nemis tilidagi “**Mais**” asosan makkajo‘xorini anglatgani bois, bu yerda botanik va madaniy aniqlik qisman yo‘qolgan. Bunday holatlarda

³⁷ Langenscheidt G. Langenscheidt Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. München: Langenscheidt Verlag, 2015. S. 945.

³⁸ Langenscheidt Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Berlin-München, 2015. S. 713.

³⁹ Abdulla Qahhor. Anor. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – B. 193.

⁴⁰ Abdulla Qahhor. Der Granatapfel. – Toshkent: Akademnashr. 2013. – B. 193.

⁴¹ Фёдоров А. В. Основы общей теории перевода. – СПб.: Филология, 2002. – С. 118.

⁴² Baker M. Translation and Culture. – London: Routledge, 2018. – P. 41.

⁴³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: O‘zME, 2006. – B. 312.

transliteratsiya asosida “Goja” shaklini saqlab, qisqa izoh berish tarjimaning madaniy informativligini oshirgan bo‘lar edi.⁴⁴

Keyingi asliy matni ham berib o‘tsak: “*Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfiga ilinib tirsakkacha yirtildi... Jo‘xori tuyayotgan xotini kelisopni kelining ustiga qo‘ya chopdi*”.⁴⁵

Nemis tilidagi tarjimasi: “*Während Turobschon eilig das Hoftor öffnete, verhakte sich sein Wattermantel an dem Riegel... Seine Frau zerstiess Mais im Mörser. Als sie ihren Mann sah, liess sie den Stössel in den Tiegel fallen*”.⁴⁶

Asli matnda berilgan “**yaktak**” leksemasi nemis tilida “**Wattermantel**” shaklida berilgan. Nemis izohli lug‘atlarida “**Die Watte**” paxta tolasi, “**der Mantel**” esa ust kiyimni anglatadi.⁴⁷ Ushbu kompozitsiya yaktakning funksional belgilarini qisman ifodalasa-da, uning astarsiz va yengil milliy kiyim sifatidagi mohiyatini to‘liq aks ettirmaydi. “Zulfin” leksemasining “*Riegel*” orqali berilishi esa semantik va funksional jihatdan muvaffaqiyatli ekvivalentdir.⁴⁸

Abdulla Qahhorning “**Anor**” hikoyasidagi lisoniy birliklarning nemis tilidagi talqini tarjimashunoslikning pragmatik adekvatlik va madaniy kompensatsiya muammolarini yoritishda muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi. Hikoyadagi somatik frazeologizmlar, disfemik qarg‘ishlar hamda emotsional nutqiy konstruksiyalarning asliyat va tarjima mutanosibliigi lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda, tarjimonning milliy ruhni saqlash hamda o‘quvchiga tushunarli qilish o‘rtasidagi murakkab ijodiy izlanishlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xususan, asliyatdagi “*Mana shunday vaqtlarda til qotib og‘izda aylanmay qoladi, mabodo aylansa, mushtning xizmatini qiladi*”⁴⁹ jumlasini orqali qahramonning affektiv holati va nutqiy tormozlanishi obrazli ifodalangan. Nemis tilidagi tarjimasida qo‘llanilgan “*In solchem Augenblick verliert man den Verstand und sollte die Zunge im Zaum halten. Eine scharfe Zunge ist stärker als ein Faustschlag*”⁵⁰ varianti psixofiziologik holatni umumlashtirish orqali vaziyat keskinligini saqlab qolgan.⁵¹ Bu yerda tarjimonning tilni jilovlash ma’nosini anglatuvchi “**die Zunge im Zaum halten**” barqaror frazeologizmini tanlashi nemis o‘quvchisi uchun kommunikativ tabiiylikni ta’minlashga xizmat qilgan bo‘lsa, o‘tkir til ma’nosidagi “**scharfe Zunge**” metaforasi asliyatdagi tajovuzkorona ruhni muvaffaqiyatli kompensatsiya qilgan.⁵²

Shuningdek, Turobjonning “*Ajab qildim, dedi Turobjon titrab, jigarlarining ezilib ketsin!*”⁵³ xitobidagi mazkur ibora o‘zbek lingvomadaniyatida kuchli g‘azabni ifodalovchi salbiy bo‘yoqdor so‘z ya’ni disfemizm hisoblanadi. Nemis tilidagi “*Soll es dir das Innere verbrennen!*”⁵⁴ ya’ni iching kuysin varianti

⁴⁴ Фёдоров А. В. Основы общей теории перевода. – СПб.: Филология, 2002. – С. 118.

⁴⁵ Abdulla Qahhor. Anor. – Toshkent: 2018. – B. 193.

⁴⁶ Abdulla Qahhor. Der Granatapfel. – Akademnashr. 2013. – B. 256.

⁴⁷ Duden. Deutsches Universalwörterbuch. – S. 273.

⁴⁸ A. Qahhor. Shum bola. – Toshkent: 2018. – B. 32.

⁴⁹ Qahhor A. Anor. Toshkent: Akademnashr, 2013. 45-bet.

⁵⁰ Qahhor A. Der Granatapfel. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – S. 36

⁵¹ Фёдоров А. В. Основы общей теории перевода. СПб.: Филология, 2002. С. 136.

⁵² Shomaqsudov A. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 178-bet.

⁵³ Qahhor A. Anor. Toshkent: Akademnashr, 2013. 45-bet.

⁵⁴ Qahhor A. Der Granatapfel (Erzählungen). – Toshkent: Akademnashr, 2013. – S. 36.

qarg‘ishning ta’sir quvvati bo‘lgan illokutsion kuchini yetarli darajada saqlay olgan. Tarjimon bu o‘rinda funksional pragmatik ekvivalentlik strategiyasini qo‘llab, milliy qarg‘ishni nemis tili uchun tabiiy disfemik konstruktsiya bilan almashtirgan.⁵⁵ Bunday emotsional intensivlik Turobjonning “*Qo‘y, xafa bo‘lma, jahl ustida aytdim*”⁵⁶ kabi xayoliy ichki monologlari bilan to‘ldirilib, personajning pushaymonlik va rahm shafqat kabi ichki fazilatlarini ochib beruvchi psixologik portretni chuqurlashtiradi.⁵⁷

Keyingi asliy matndagi “*Kishining yuragini qon qilib yuborasan, asal otliqqa yo‘q, hali biz piyoda-ku!*”⁵⁸ jumlasida tarkibidagi metaforik va metonimik birliklar diqqatni tortadi. “**Yuragini qon qilmoq**” metaforasi nemis tilida kishining “**ko‘nglini og‘ritmoq**” ma’nosidagi “**jemandem das Herz schwer machen**” kabi pragmatik mos vosita orqali berilgan bo‘lsa⁵⁹, ijtimoiy tengsizlikni aks ettiruvchi “**otliqqa yo‘q**” madaniy kodi tarjimada uning mazmuniy yadrosini ochib beruvchi hech qayerdan topib bo‘lmaydi ma’nosidagi “**nirgendwo zu bekommen**” kabi pragmatik ekvivalent bilan almashtirilgan.⁶⁰ Bu kabi yondashuvlar tarjimada kommunikativ tushunarlikni ta’minlagan bo‘lsa-da, milliy koloritning qisman susayishiga olib kelgani kuzatiladi.⁶¹ Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, Abdulla Qahhor asarlaridagi milliy madaniy birliklar nemis tilida dinamik ekvivalentlik tamoyili asosida qayta yaratilib, asliyatning estetik ta’siri maqsad tili imkoniyatlari doirasida muvaffaqiyatli tiklangan.

Asardagi “*Oyning o‘n beshlari bo‘lsa-da, havoning bulutlig‘i bilan oy ko‘rinmas, chin ma’nosi bilan qorong‘i kuzning qorong‘i bir tuni edi*”⁶² jumlasida badiiy tasvirning yuqori darajadagi ekspressivligini namoyon etadi. Bu o‘rinda qo‘llanilgan kontrastiv metafora **oy** fazasining to‘lin bo‘lishiga qaramay, uning ko‘rinmasligi orqali “**tabiiy yorug‘lik mavjud, ammo idrok etilmaydi**” degan semantik paradoksni yuzaga chiqaradi. Natijada tun oddiy qorong‘ilik emas, balki mutlaq zulmat sifatida konseptualizatsiya qilinadi. V.A. Maslovaning lingvokulturologiya sohasidagi tadqiqotlarida qayd etilishicha, qorong‘ilikning bunday talqini xavf, noaniqlik va ichki iztirob bilan bog‘liq semantik konstantalarga to‘la mos keladi.⁶³

Nemis tilidagi tarjimada esa mazkur parchaning kommunikativ-ekvivalent usulda qayta yaratilganini ko‘rish mumkin. “**Eine dunkle Herbstnacht brach an**”⁶⁴ jumlasida voqeaning vaqt va makon koordinatlarini aniq belgilab bersa-da, asliyatdagi hissiy intensivlikni biroz neytrallashtiradi. Tarjimon Arno Shpext bu o‘rinda badiiy obrazdan ko‘ra, voqeaviy ravonlikni ustuvor qo‘yib, dinamik tarjima strategiyasini tanlagan bo‘lsa-da, matnning keyingi segmentlarida zulmatning psixologik bosimi qabrston atrofidagi qadimiy daraxtzor va

⁵⁵ Фёдоров А. В. Основы общей теории перевода. С. 112.

⁵⁶ Qahhor A. Anor. Toshkent: Akademyashr, 2013. 46-bet.

⁵⁷ Qahhor A. Anor. Toshkent: Akademyashr, 2013. 47-bet.

⁵⁸ Qahhor A. Anor. Toshkent: Akademyashr, 2013. 46-bet.

⁵⁹ Qahhor A. Der Granatapfel (Erzählungen). – Toshkent: Akademyashr, 2013. – 256 S.

⁶⁰ Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 608 с.

⁶¹ Фёдоров А. В. Основы общей теории перевода. – Санкт-Петербург: Филология, 2002. – 416 с.

⁶² Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2014. – 123 b.

⁶³ Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Наука, 2001. – С. 112.

⁶⁴ Qodiriy A. Die Liebenden von Taschkent. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 220.

shamolning shiddati kabi detallar yordamida bosqichma-bosqich qayta tiklanadi. A.V. Fyodorov tarjima nazariyasida bunday yondashuvni funksional-adaptiv tarjima deb baholab, metaforaning bevosita ekvivalentini emas, balki uning umumiy ta'sirini boshqa tasviriy vositalar orqali yetkazish (kompensatsiya) deb hisoblaydi.⁶⁵

Lingvopoetik nuqtayi nazardan qaralganda, asliyatdagi zulmat konsepti nemis tilidagi muqobilida to'liq emotsional adekvatlikka erishmaganini kuzatish mumkin. Agar tarjimada **“tiefschwarz”** sifatdoshi yoki **“hereinbrechen”** fe'li kabi lisoniy intensifikatorlar qo'llanilganida, o'zbekcha metaforaning ichki drammatizmi kuchliroq aks etgan bo'lardi. J. Lakoff va M. Jonsoning metafora nazariyasiga oid qarashlari asosida xulosa qilinadigan bo'lsa, bunday tafovutlar madaniy tafakkur modellaridagi farqlar bilan izohlanadi va tarjimada obrazlilikni saqlash faqat semantik emas, balki madaniy-struktural moslikni ham talab etishini tasdiqlaydi.⁶⁶ Dissertasiyaning uchinchi bobi: **“O'zbek va nemis tillaridagi tarjima matnlarininglingvokulturologik xususiyatlari”** deb nomlanib, ushbu bobda nemis tiliga o'girilgan nasriy asar **“O'tkan kunlar”** romanidagi nutqiy kalimalarning kommunikativ va pragmatik jihatdan ikki til miqyosida tahlili amalga oshiriladi.

Zamonaviy antropotsentrik paradigma doirasida tarjimonning asosiy vazifasi maqsad tili sohibida asliyatdagiga muvofiq illokutiv kuch va perlokutiv samarani shakllantirishdan iborat.⁶⁷ Charlz Morris va Charlz Sanders Pirs nazariyalariga ko'ra, belgilarning pragmatik mohiyati muloqot samaradorligiga xizmat qiluvchi strategik tanlovlar orqali belgilanadi.⁶⁸ Badiiy matndagi milliy lakunalar va frazeologizmlar o'ta kuchli pragmatik yukni mujassam etgani bois, ularni o'girishda dinamik ekvivalentlik tamoyili badiiy adekvatlikni ta'minlovchi hal qiluvchi omildir.⁶⁹

Badiiy diskursni o'zga tilli makonda qayta modellashtirish jarayoni shunchaki lisoniy transformatsiya emas, balki muallifning kommunikativ niyatini va matnning pragmatik potensialini saqlashga yo'naltirilgan murakkab intellektual faoliyatdir. Ushbu jarayonda J. Ostin va J. Serl tomonidan asos solingan nutqiy aktlar nazariyasi lisoniy birliklarning illokutiv kuchini aniqlashda fundamental metodologik tayanch vazifasini o'taydi.⁷⁰

Badiiy matn tahlili G.P. Graysning kommunikativ maksimalari hamda R. Lakoffning iltifotlilik tamoyillari bilan uyg'unlikda olib borilishi o'zbek va nemis tillari o'rtasidagi madaniyatlararo muloqotda yuzaga keladigan pragmatik tafovutlarni bartaraf etish imkonini beradi.⁷¹ Shuningdek, matn semantikasining yashirin qatlamlarini (implikaturani) yoritishda S. Levinsonning pragmatik

⁶⁵ Фёдоров А. В. Основы общей теории перевода. – Санкт-Петербург: Филология, 2002. – С. 112.

⁶⁶ Lakoff J., Jonson M. Metafori, kotorimi mi jivnom. – Moskva: URSS, 2004. – S. 45.

⁶⁷ Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 78.

⁶⁸ Morris Charles W. Logical Positivism, Pragmatism and Scientific Empiricism. – New York: AMS Press, 1979. – P. 42.

⁶⁹ Isomiddinov Z. Tarjimashunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 45.

⁷⁰ Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

⁷¹ Grice H. P. Logic and conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3. – New York, 1975. – P. 41–58.

modellariga tayanilishi lisoniy birliklarning kontekstual va vaziyatli ma'nolarini ochib berishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.⁷²

O'zbek tilidagi "ko'ngli buzilmoq" frazeologizmining nemis tilidagi neytral muqobillari qahramonning ichki ruhiy iztirobini to'laqonli aks ettira olmaydi. Shu bois, matnda "sein Herz war von Kummer erfüllt" kabi obrazli konstruksiyalarning qo'llanilishi qahramonning psixologik holatini nemis kitobxon uchun adekvat qayta yaratish imkonini beradi⁷³. Bunday ijtimoiy-madaniy moslashtirish usullari E. Nida nazariyasidagi kognitiv modelni kengaytirish orqali asliyatdan o'zib ketish hodisasi bilan hamohangdir.⁷³ Binobarin, badiiy tarjima A.V. Fedorov ta'kidlaganidek, shunchaki mexanik jarayon emas, balki dialektik taraqqiyot mahsulidir.⁷⁴ Tarjimon nafaqat lug'aviy muqobillikni ta'minlashi, balki V. Koller va E. Nida tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik tamoyillariga muvofiq, asar mazmuniga singdirilgan milliy-madaniy konnotatsiyalarni maqsad tili tizimida qayta yaratish mahoratini namoyish etishi lozim.⁷⁵ V.N. Komissarov nazariyasida ta'kidlanganidek, matnning pragmatik potentsiali uning kitobxon ruhiyatiga ko'rsatadigan hissiy ta'sirida o'z aksini topadi.⁷⁶ Zero, tarjima matni maqsad tili tizimida shunchaki mazmuniy sadoqat bilan cheklanib qolmay, mustaqil badiiy-estetik qiymatga ega bo'lgan durdonaga aylanishi lozim.

Shuningdek, Abdulla Qodiriy asarlaridagi "Otabek hujraga kirib o'tirdi"⁷⁷ kabi denotativ xabarlarining nemis tilidagi talqinda "Otabek betrat das Zimmer und suchte in der Stille der Einsamkeit Zuflucht"⁷⁸ shaklida berilishi pragmatik adaptatsiyaning yorqin namunasidir. Bu yerda tarjimon kognitiv modelni kengaytirish orqali matnning pragmatik ta'sirini kuchaytirgan.⁷⁹

O'zbek tilida berilgan asliy matn: *Otabek mehmonlarni tanchaga o'tquzib, fotihadan so'ng Hasanalidan so'radi: – Tuzukmisiz, ota? – Xudoga shukur, – dedi Hasanali, – boyag'idan bir oz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan. – Ba'zi yumushlar buyursam... – Buyuringiz, o'g'lim. – Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi. – Xo'b, begim. Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog'liq so'rashqandan keyin so'radi: – Bu kishi kimingiz bo'ladir, bek aka? Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so'ngra javob berdi: – Qulimiz. Bu so'zdan nima uchundir Homid ajablangan edi. – Qulingiz? – Shundog'.*⁸⁰

Nemis tiliga o'girilgan tarjima matni: *Nachdem sich die Gäste an den Sandal gesetzt hatten und die Fatiha gesprochen war, fragte Otabek den Alten: "Wie fühlt Ihr Euch, Verehrungswürdiger?" "Es geht mir gottlob wieder besser. Ich hatte wohl am Feuer zuviel Rauch geschluckt." "Würdet Ihr mir einen Dienst*

⁷² Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 457 p.

⁷³ Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2014. – B. 92.

⁷⁴ Nida E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. – P. 159

⁷⁵ Nida E. A. Ko'rsatilgan asar. – P. 162

⁷⁶ Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – Москва: Высшая школа, 1990. – С. 85.

⁷⁷ Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2014. – B. 92.

⁷⁸ Qodiriy A. Die vergangenen Tage / Aus dem Usbekischen von Sigrid Klein. – Berlin, 2017. – S. 118.

⁷⁹ Nida E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. – P. 159.

⁸⁰ Qodiriy, A. O'tkan kunlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1926

erweisen?” “Befehl, Herr.” “Danke, Vater. Bereitet uns den Tee.” Der Alte ging. Rahmat erkundigte sich höflich nach Otabeks Befinden und fragte dann: “Wer ist dieser Mann?” Mit einem Blick auf die Tür vergewisserte sich Otabek, daß der Alte außer Hörweite war, und sagte: “Das ist Hassanali, unser Sklave.” “Euer Sklave?” fragte Homid überrascht. “Ja.”⁸¹

Asliy matndagi **“1264-inchi hijriy, dalv oyining o‘n yettinchisi”** hamda **“quyosh botqan”**, **“shom azoni eshitiladir”** kabi birliklar islomiy dunyoqarash va musulmon taqvimini asosidagi ritualistik vaqt o‘lchovini ifodalaydi. Bu yerda presuppozitsiya hodisasi muhim rol o‘ynaydi: o‘zbek kitobxonlari uchun **“shom azoni”** shunchaki vaqt ko‘rsatkichi emas, balki muayyan diniy amal va ijtimoiy muhitning boshlanish nuqtasidir.⁸²

Nemis tilidagi o‘g‘irilgan matnda **“Die Sonne war untergegangen”** va **“Von den Minaretten riefen die Muezzins”** konstruksiyalari orqali vaqt hamda diniy marosim tushunchalari muvaffaqiyatli aks ettirilgan bo‘lsada⁸³, stilistik jihatdan tahlil qilinganda, asliyatdagi **“qishki kunlarning biri”** iborasining tarjimada tushirib qoldirilishi matnning atmosferik tomonlarini va mavsumiy kontekstini zaiflashtirgan. Shuningdek, o‘zbek tilidagi **“Namoz”** so‘zi o‘rniga qo‘llanilgan **“abendlichen Namos”** birikmasi nemis tili auditoriyasi uchun kognitiv jihatdan begona (ekzotik) bo‘lib, diniy-pragmatik rezonansning susayishiga olib kelgan. Mazkur holatda dinamik ekvivalentlik tamoyiliga tayangan holda, **“an einem Winterabend”** kabi ekspressiv markerlarni qo‘llash va mavsumiy tafsilotlarni saqlash maqsadga muvofiq bo‘lardi.⁸⁴ Tarjima jarayonida lakunalarni to‘ldirish va madaniy adaptatsiya usullaridan foydalanmaslik pragmatik salohiyatning qisman yo‘qolishiga sabab bo‘lgan. Sh. Safarov ta’kidlaganidek, lingvopragmatik tahlil jarayonida tarjimondan nafaqat lisoniy muvofiqlik, balki asliyat va tarjima tillari sohiblarining dunyoni idrok etish xususiyatlarini (fon bilimlari) chuqur anglash talab etiladi.⁸⁵ Binobarin, madaniy sezgirlikni oshirish uchun mavsumiy markerlar va diniy terminologiyaga nisbatan izohli (deskriptiv) yondashuvni qo‘llash matnning ruhiy-estetik butunligini qayta tiklashning asosiy shartidir.

XULOSA

1. Tilning ichki va tashqi omillari ta’sirida yuzaga keladigan badiiy nutq shakllari milliy o‘zlikni in’ikos etuvchi asosiy vosita sifatida tahlil qilindi. Tadqiqotda lisoniy birliklarning xalq madaniyati va dunyoqarashi bilan aloqadorligi kognitiv-semantik jihatdan yoritilib, milliy realiyalar va frazeologizmlarning o‘zga tilli muhitda o‘z semantik quvvatini saqlashi tarjimonning madaniyatlararo kompetensiyasiga bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslandi.

⁸¹ Kadiri, A. Die Liebenden von Taschkent. Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. Seite 6.

⁸² Rahimov U. Pragmatik ma’no va presuppozitsiya. – Toshkent: Fan, 2009. – B. 42.

⁸³ Kadiri A. Die Liebenden von Taschkent / Aus dem Usbekischen von Sigrid Klein. – Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. – S. 6

⁸⁴ Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 167.

⁸⁵ Safarov Sh. Pragmatika va lingvopragmatika masalalari. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 89.

2. Badiiy matndagi “kelin salom”, “supa”, “osh damlash” kabi milliy-madaniy realiyalar nemis tiliga o‘girilganda, ularning mazmuniy va funksional ko‘lami lingvistik lakunalar tabiatini ochib berdi. Mazkur birliklarni shunchaki lug‘aviy ma’nodada tarjima qilish etnomadaniy rezonansning pasayishiga olib kelishi hamda o‘zbek turmush tarziga xos bo‘lgan spesifik jihatlarining nemis tili lisoniy manzarasida tushunarsiz bo‘lib qolishi dalillar orqali ko‘rsatib berildi.

3. O‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi nomutanosibliklar qiyosiy tahlil etilganda, asosiy muammo bevosita ekvivalentlikning yo‘qligi bilan bog‘liqligi aniqlandi. Xususan, “osh” leksik birligining nemis tilidagi neytral o‘girmalari ushbu taomning milliy marosimiy statusini va ijtimoiy-madaniy yukini to‘liq qoplamasligi isbotlandi. Binobarin, gastronomik leksikani tarjima qilishda faqatgina denotativ ma’noga tayanish asarning etnomadaniy qimmatini susaytirishi isbotlandi.

4. Xorijiy kitobxonda asliyat matni haqida to‘g‘ri kognitiv tasavvur shakllantirish uchun tarjimada madaniy sharh va eksplikatsiya (izohlash) usulidan foydalanish zaruriyati metodologik jihatdan dalillandi. Tadqiqotda aniqlanishicha, o‘zga tilli o‘quvchi milliy tushunchalarni o‘z madaniy tajribasi asosida interpretatsiya qilishi kognitiv dissonansni keltirib chiqaradi. Mazkur jarayonni muvofiqlashtirishda kontekstual izohlar berish strategiyasi eng samarali yechim sifatida baholandi.

5. O‘zbek xalqining samimiyligi va ochiqko‘ngilligini ifodalovchi “bir piyola choy ustida” kabi idiomatik iboralarning nemis tilidagi talqinida pragmatik ma’no pasayishi kuzatildi. Ushbu birliklar shunchaki axborot beruvchi vosita emas, balki milliy mentalitetning tayanch nuqtalari ekanligi ilmiy asoslandi. Ularni informativ o‘girish matnning estetik ruhini zaiflashtirishi, bunday hollarda tarjimon xalqning falsafiy qarashlarini matn osti ma’nosi sifatida berishi shartligi uqtirildi.

6. Badiiy asardagi “yuragi paxtaday yumshoq” kabi milliy-spesifik metaforalarning nemis tilidagi muqobillari o‘zbekona obrazli tafakkur uslubini har doim ham adekvat aks ettirmasligi qiyosiy o‘rganildi. Obrazli ifodalarni saqlashda tarjimonning lingvokulturologik mahorati hal qiluvchi rol o‘ynashi, frazeologik birliklarning tasviriyligini yo‘qotish esa asarning emotsional-ekspressiv quvvatiga putur yetkazishi isbotlandi. Bu esa metaforik transferda lisoniy manzarani saqlash ustuvor ekanligini tasdiqladi.

7. Tadqiqotda o‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan “sovchilik”, “fotiha”, “qalin” kabi sotsiomadaniy fenomenlarning nemis tilidagi talqinida yuzaga kelgan semantik transformatsiyalar tahlil qilindi. Ushbu tushunchalarning nemis tili doirasidagi neytral konstruksiyalar bilan almashtirilishi jarayonning ijtimoiy mas’uliyatini pasaytirishi aniqlandi. Natijada, asliyatdagi ijtimoiy rollar va milliy qadriyatlarni tarjimada saqlash uchun transliteratsiya va madaniy analoglar uyg‘unligi strategik yechim ekanligi bayon etildi.

8. O‘zbek xalqi hayot ritmini belgilovchi “namoz”, “azon”, “shom” kabi diniy-madaniy birliklarning tarjimada diniy rezonansini yo‘qotish xavfi mavjudligi ko‘rsatildi. Ushbu tushunchalar kundalik turmush tarzining tarkibiy qismi bo‘lganligi bois, ularni shunchaki lug‘aviy ma’nodada emas, balki kontekstual yuk

bilan berish zaruriyati yoritildi. Diniy amaliyotlarning tarjimada to'g'ri aks etishi nemis kitobxonida Sharq xalqlari ma'naviyati haqida adekvat tasavvur uyg'otishi ilmiy jihatdan e'tirof etildi.

9. Otabek obrazi misolida o'zbek yoshlariga xos bo'lgan kattalarga hurmat, hayo va itoat kabi axloqiy normalarning tarjimada aks etish darajasi o'rganildi. Ushbu sotsiolingvistik xususiyatlarning tarjimada saqlanmasligi personajning badiiy mantiqini va xarakter yaxlitligini buzishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarjimonning lisoniy qobiliyati bilan birga milliy mentalitetni chuqur his qilishi tarjima muvaffaqiyatini belgilovchi bosh omil sifatida belgilab berildi.

10. Badiiy diskurs tarjimasida substandart va norasmiy nutq shakllarini, shuningdek, personajlar nutqining o'ziga xosligini saqlashda lingvokulturologik ekvilibr (muvozanat) tamoyili muhimligi tahlil etildi. So'zma-so'z o'girish usuli asliyatning funksional-stilistik jozibasini susaytirishi, shu sababli adaptatsion yondashuvlar orqali milliy koloritni qayta tiklash zarurligi asoslandi. Ushbu strategiya asl matn g'oyasini nemis kitobxoniga ta'sirchan yetkazishga yordam berishi qayd etildi.

11. Milliy kiyim-kechak, taqinchoq va ashyoviy realiyalarning nemis tiliga o'girilishida lingvistik moslashtirish hamda o'zlashma so'zlardan foydalanish darajasi atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida do'ppi, kavush va sandiq kabi moddiy madaniyat namunalari nemis tilidagi funksional muqobillari orqali berilganda, ular asliyatdagi tarixiy va madaniy davr ruhini to'liq aks ettira olmasligi aniqlandi. Shu bois, badiiy matnning atmosferaviy quvvatini va milliy koloritini saqlash maqsadida ushbu birliklarni matnda o'z shaklida qoldirish hamda ilovalar qismida ularga batafsil izoh berish uslubi eng samarali metodologik yondashuv sifatida qaraldi.

12. O'zbek tili nutqiy uslublariga xos pragmatik xususiyatlarni saqlash badiiy tarjima sifatini ta'minlovchi fundamental metodologik asos sifatida e'tirof etildi. Nemis tiliga o'girilgan asarlarda milliy lisoniy manzarani interpretatsiya qilish orqali madaniyatlararo adabiy muloqotni tizimli mustahkamlash zaruriyati dalillandi. Bu esa o'zbek adabiyoti durdonalarini jahon miqyosida konseptual targ'ib qilish hamda lingvokulturologik tadqiqotlar uchun yangi nazariy-amaliy istiqbollarni shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy tahlillar vositasida umumlashtirildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

СОДИКОВ ДИЛШОДБЕК КОБИЛОВИЧ

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ
ФЕНОМЕНОВ В ПЕРЕВОДЕ**
(на основе произведений, переведенных с узбекского на немецкий язык)

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание
и переводоведение**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/Fil 3575.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации размещён на трех языках (узбекском, английском, русском (резюме)) на сайте Научного совета (www.adchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Умарходжаев Мухтар Ишанходжаевич доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Якубов Жамолдин Абдувалиевич доктор филологических наук, профессор Кахарова Мавлуда Мукаррамовна кандидат филологических наук, профессор
Ведущая организация:	Кокандский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2026 года в ____ часов на заседании Научного совета по присуждению научных степеней DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 при Андижанском государственном институте иностранных языков. (Адрес: город Андижан, проспект Бабура, дом 5. Тел.: (74) 223-42-76, Факс: (74) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного института иностранных языков (регистрационный номер ____). (Адрес: 170100, город Андижан, проспект Бабура 5, Тел.: (74) 223-42-76).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2026 года.
(Протокол реестра рассылки № ____ от « ____ » _____ 2026 года).

Д.А.Рустамов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

А.Дж.Атабоев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

М.А.Абдувалиев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. В мировом языкознании анализ этапов развития направлений лингвокультурологии и перевода выявляет необходимость всестороннего изучения процесса перевода на немецкий язык лингвокультурологических явлений, встречающихся в узбекских текстах. Данный научный подход, наряду с раскрытием содержания языковых единиц, имеющих культурную окраску, позволяет выявить, как ментальные особенности, обычаи, система ценностей, исторический опыт и мировоззрение двух народов могут претерпевать изменения в процессе перевода. Именно поэтому вопрос о правильном и адекватном по содержанию переносе лингвокультурологических элементов на целевой язык признается сегодня актуальным научным направлением.

В рамках мировой лингвистики определение эквивалентности лингвокультурологических единиц в переводе, доведение их до целевого языка без отрыва от национального культурного содержания, семантические потери, наблюдаемые в процессе перевода, изменение национальных представлений и образов, а также глубокий анализ способов компенсации являются одними из важнейших направлений научных исследований сегодняшнего дня. В художественных переводах с узбекского на немецкий язык необходимо в полной мере отражать элементы, относящиеся к национальной культуре, выражать национальные концепции с сохранением их содержания, выбирать подходящие эквиваленты для целевого языка, использовать эффективные методы передачи лингвокультурологических реалий, а также сознательно выбирать интерпретирующие, адаптирующие, транскрипционные или функциональные стратегии перевода, что определяет содержание исследований.

В нашей стране активизируются научные исследования по изучению лингвокультурологических явлений в переводах, осуществляемых между узбекским и немецким языками, применению передовых методик, опирающихся на зарубежный переводческий опыт, сохранению национального колорита в художественных переводах, полному отражению исторической, этнической, религиозной, фольклорной памяти и национального ментального пространства узбекского народа через немецкий язык. Проводимые в этом направлении исследования, наряду с выявлением процесса трансформации лингвокультурологических единиц в переводе, имеют важное научное и практическое значение для развития переводческой школы в нашей стране, расширения международного научного сотрудничества и популяризации узбекского литературного наследия в мире.

Мнение Президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева о том, что “успехи науки в мире не случайно были достигнуты именно в направлении фундаментальных исследований”, свидетельствует о широте масштабов проводящихся в данной сфере изысканий. Научные исследования парадигмы и синтагматической модели дипломатического дискурса служат

решению многих спорных вопросов, раскрытию внутренних механизмов системы языковых единиц.¹

С этой точки зрения, данное исследование служит непосредственной научно-практической основой при реализации задач, намеченных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2789 “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности Академии наук” от 17 февраля 2017 года, “О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в учебных заведениях” от 11 августа

2017 года, № ПП-3654 “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Министерства иностранных дел Республики Узбекистан” от 5 апреля 2018 года, Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5850 “О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного” от 21 октября 2019 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПФ-5117 “О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень” от 19 мая 2021 года и других нормативных правовых актах.²

Соответствие диссертации приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики: “Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации”.

